



## **XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI**

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 13 - sentabr

VI-65-175-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

### **Xalq deputatlari Angor tumani Kengashining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi X.Xudoyberdiyevning hisoboti to‘g‘risida**

Xalq deputatlari Angor tumani Kengashining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi X.Xudoyberdiyevning joriy yilning o‘tgan davri mobaynida amalga oshirilgan ishlari yuzasidan hisobotini tinglab, xalq deputatlari Angor tuman Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. Xalq deputatlari Angor tumani Kengashining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi X.Xudoyberdiyevning joriy yilning o‘tgan davri mobaynida amalga oshirilgan ishlari yuzasidan bergan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

### **2. Xalq deputatlari Angor tumani Kengashining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya bo‘yicha doimiy komissiyasiga:**

- agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya bo‘yicha dasturlarni dastlabki tarzda ko‘rib chiqish va tayyorlashda qatnashish;

- yerdan oqilona foydalanish, tuproq unumdorligini saqlash va qayta ishlov berish, tabiiy muhitni yaxshilash bo‘yicha ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy-xo‘jalik sharoitlari masalalarini ko‘rib chiqish;

- dehqon va fermer xo‘jaliklari, sanoat korxonalari, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari o‘rtasidagi ishlab chiqarish aloqalarini o‘rganish va ularni mustahkamlash bo‘yicha takliflar kiritish;

- tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan samarali foydalanish ustidan nazoratni amalga oshirish;

- qishloq xo‘jaligi hamda dehqon va fermer xo‘jaliklarini samarali rivojlantirish

uchun zarur sharoitlar yaratish bo'yicha takliflar kiritish;

- hududdagi suv resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishning asosiy yo'nalishlarini belgilashda, shuningdek suv resurslaridan foydalanishni tartibga solish va ularni muhofaza qilish sohasida qonuniylik hamda huquq-tartibotni ta'minlashda ishtirok etish;

- suv obektlari holatini saqlash va yaxshilash, ularga zararli ta'sir ko'rsatilishining oldini olish va bartaraf yetish, shuningdek avariya, toshqin, sel va tabiiy ofatlar natijasida vayron bo'lgan obyektlarni tiklash yuzasidan takliflar kirish;

- zarur hollarda qonun hujjatlariga muvofiq ekologik ekspertiza o'tkazish bo'yicha takliflar kirish;

- hokimlik bo'limlar va boshqarmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar rahbarlarining komissiya vakolatiga taalluqli masalalar bo'yicha hisobotlarini (axborotlarini) eshitish, tavsiyalar berish va ularning ijrosini nazorat qilish;

- vakolati doirasida nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan yaqindan hamkorlik qilish, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga, davlat tuzilmalari va nodavlat notijorat tashkilotlari o'rtasida ijtimoiy sheriklikni rivojlantirishga ko'maklashish;

- o'z vakolatiga taalluqli boshqa masalalarni ko'rib chiqish, ular bo'yicha qarorlar qabul qilish, tavsiyalar berish vazifalari yuklatilsin.

### **3. Tuman hokimining Qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari (J.Po'latov), tuman Qishloq xo'jaligi bo'limi (B.Jo'rayev), Kadastr agentligi tuman bo'limi (A.Ziyodullayev)larga:**

tumandagi qishloq xo'jaligida yerlardan samarasiz va noqonuniy foydalanayotgan qishloq xo'jaliklari yerlarini xatlovdan o'tkazish bo'yicha ishchi guruh tashkil etilsin.

Ishchi guruh tomonidan aniqlangan samarasiz va noqonuniy foydalanib kelayotgan yerlarni bir oy muddat ichida ularga tegishli choralar ko'rish to'g'risida xalq deputatlari tuman Kengashiga takliflar kiritilsin.

### **4. Tuman hokimining o'rinbosarlari, tumandagi barcha turdagi tashkilot, korxonalar rahbarlariga:**

- xalq deputatlari Angor tumani Kengashi qarorlarining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya bo'yicha doimiy komissiyasiga nazorati yuklatilgan barcha qarorlarning ijrosi bo'yicha muddatlarida axborot kiritib borish;

- doimiy komissiya tomonidan nazorat tartibida ko'rib chiqish uchun so'ralgan

ma'lumotlarni taqdim etish;

- xalq deputatlari Angor tumani Kengashi qarorlarining barchasi ijrosi yuzasidan joriy yil yakuniga qadar o'zlariga yuklatilgan vazifalarning ijrosini to'liq ta'minlash va belgilangan muddatlarda axborot kiritish topshirilsin.

5. Tuman hokimligi Axborot xizmati va "Angor yog'dusi" gazetasi (G.Jumayeva)ga xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari faoliyatini ommaviy axborot vositalarida yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishi nazorat qilishni xalq deputatlari Angor tuman Kengashi raisi o'rinbosari I.Baxromov zimmasiga yuklatilsin.

7. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

**Kengash raisi**



**Q.Mardonov**